

Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich Buxoro davlat pedagogika instituti
Geografiya kafedirasi dotsenti, g.f.n., **Eshtuxtayev Anvarjon Toxir o'g'li** Buxoro
davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti, Geografiya va iqtisodiy
bilim asoslari ta'lim yo'nalishi 3GIQ-22 guruhi talabasi

Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich, Associate Professor, Department of
Geography, Bukhara State Pedagogical Institute, Candidate of Sciences,
Eshtukhtayev Anvarjon Tokhir oglu, Bukhara State Pedagogical Institute, Faculty
of Exact and Natural Sciences, Student of Group 3GIQ-22, Department of
Geography and Fundamentals of Economic Knowledge

SAMARQAND VILOYATI SHAHARLARINING GEOGRAFIYASI

GEOGRAPHY OF CITIES OF SAMARKAND REGION.

Annotatsiya. Ushbu maqolaning dolzarbligi shundaki shaharlar geografiyasi zamonaviy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning eng omadi yurushgan tarmoqlaridan biri. Ayniqsa, viloyat va mintaqalarning shaharlar to'ri, tizimi tarkibini o'rganish geourbanistikada alohida o'rin tutadi. Maqolada Samarqand viloyati shahar manzilgohlarining bugungi holatini o'rganish orqali shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hamda geografik jihatdan rivojlanishiga baho berilgan.

Kalit so'zlar: Shaharlar geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy geografiya, shaharlar to'ri, shaharlar tizimi, geourbanistika, madaniy, urbanizatsiya, demografiya.

Аннотация. Актуальность данной статьи заключается в том, что городская география является одной из наиболее успешных отраслей современной экономической и социальной географии. В частности, особое место в георбанизме занимает изучение структуры городской сети и системы регионов. В статье оценивается социально-экономическое, культурное и географическое развитие городов на основе изучения современного состояния урбанистики Самаркандской области.

Ключевые слова: урбанистика, социально-экономическая география, городская сеть, городская система, георбанистика, культура, урбанизация, демография.

Abstract. The relevance of this article is that urban geography is one of the most successful branches of modern economic and social geography. In particular, the study of the structure of the urban network and system of regions occupies a special place in geourbanism. The article assesses the socio-economic, cultural and geographical development of cities by studying the current state of urban settlements in the Samarkand region.

Key words: Urban geography, socio-economic geography, urban network, urban system, geourbanism, cultural, urbanization, demography.

Samarqand viloyati O'zbekistonning eng qadimiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biri bo'lib, uning shahar manzilgohlarini chuqur o'rganish orqali butun viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va geografik taraqqiyot holatiga aniq baho berish mumkin. Bugungi kunda viloyat tarkibida 2 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar (Samarqand va Kattaqo'rg'on) hamda 10 ta tuman markazlari shahar maqomiga ega manzilgohlar mavjud.

Samarqand viloyati – O'zbekistonning markazida, Zarafshon daryosi vodiysida joylashgan. U 1938 yil 15 yanvar kuni tashkil etilgan. Viloyat hududi 16,8 kilometr kvadrat bo'lib, aholisi 4 mln 159 ming (2025 yil 1 iyul holatiga ko'ra) kishini tashkil etadi. Samarqand viloyati shimoliy-sharqda Jizzax, janubda Qashqadaryo, shimoliy-g'arbda Navoiy viloyatlari, g'arbda Tojikiston bilan chegaradosh.

Shahar manzilgohlarining ijtimoiy-iqtisodiy holati. Samarqand viloyatida bugungi kunda Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlaridan tashqari 10 dan ortiq tuman markazlari shahar maqomiga ega. Ularning iqtisodiy rivojlanishi qator omillar bilan belgilanadi: Samarqand shahri – xizmat ko'rsatish, transport-logistika, turizm, savdo va ta'lim markazi. Yalpi hududiy mahsulotning katta qismini aynan xizmat sohasi tashkil etadi. Kattaqo'rg'on shahri – sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish faoliyati bilan ajralib turadi. Urgut, Payariq, Pastdarg'om kabi shahar manzilgohlarida kichik biznes, hunarmandchilik va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish keng rivojlanmoqda. So'nggi yillarda "Urgut erkin iqtisodiy zonasi" faoliyati tufayli investitsiyalar oqimi oshib, yangi ishlab chiqarish korxonalari barpo etildi. Umuman olganda, viloyat shaharlarida iqtisodiy faollik oshib, bandlik darajasi yil sayin yaxshilanmoqda.

Demografik jarayonlar va urbanizatsiya. Samarqand viloyati shaharlarida aholi sonining o'sishi va urbanizatsiya jarayoni jadallik bilan ketmoqda. Asosiy demografik tendensiyalar quyidagicha: Qishloqlardan shahar markazlariga ichki migratsiya kuchaygan. Aholining tabiiy o'sishi yuqori darajada bo'lib, bu shahar infratuzilmasiga qo'shimcha talabni oshirmoqda. Aholi zichligi eng yuqori bo'lgan

hudud – Samarqand shahri bo‘lib, viloyatning asosiy iqtisodiy va ma‘muriy resurslari shu yerda jamlangan. Urbanizatsiya jarayonining faolligi yangi uy-joy massivi, yo‘llar, maktab, bog‘cha, suv va elektr tarmoqlarining kengaytirilishini taqozo etmoqda.

Madaniy rivojlanish va infratuzilma. Samarqand viloyati shaharlarining madaniy hayoti boy tarixiy meros bilan uzviy bog‘liq. Samarqand shahri – xalqaro turizm markazi bo‘lib, Registon, Shohi-Zinda, Ulug‘bek rasadxonasi kabi obidalar nafaqat madaniy, balki iqtisodiy rivojlanishning ham muhim omili hisoblanadi. Shahar markazlarida yangi kutubxonalar, madaniyat saroylari, teatrlar, sport majmualari qurilmoqda. Turizm infratuzilmasining kengayishi mehmonxonalar, yo‘l infratuzilmasi va servis sohasining ham o‘rishiga sabab bo‘lmoqda. Madaniy rivojlanish aholining turmush tarzini o‘zgartirayotgan asosiy omillardan biridir.

Geografik omillar va hududiy joylashuvning ta‘siri. Har bir shahar manzilgohining geografik joylashuvi uning iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilaydi. Urgut – tog‘ oldi hududida joylashgani sabab savdo, hunarmandchilik va transchegaraviy iqtisodiy aloqalar rivojlangan. Kattaqo‘rg‘on – suv manbalari va transport yo‘llari kesishgan hududda bo‘lgani uchun qishloq xo‘jaligi va qayta ishlash sanoati rivojlangan. Samarqand – temir yo‘l, avtomobil yo‘llari va xalqaro aeroport markazi sifatida butun viloyat logistikasini boshqaradi. Geografik omillar tufayli shaharlarning iqtisodiy tarkibi farqlanadi va hududlar o‘rtasida funksional bo‘linish shakllangan.

SAMARQAND VILOYATIDAGI SHAXAR MANZILGOXLARINING TASHKIL TOPISHI.

T/p	Manzilgox nomi.	Shaxarcha maqomini olgan yili.	Shaxar maqomini olgan yili.	Joylashgan urni [tumani]	Mamuriy ahamiyati [funksiyasi]
1.	Samarqand		Eramizgacha 4 asir		Viloyat markazi (kup funksiyali shahar)
2.	Kattaqurg‘on		1868	Kattaqurg‘on	Okrug markazi

3.	Bulung'ir	1944	1973	Bulung'ir	Tuman markazi
4.	Jonboy		1977	Jonboy	Tuman markazi
5.	Juma	1934	1973	Pasdarg'on	Tuman markazi т.й. сг-яси
6.	Ishtixon	1978	1984	Ishtixon	Tuman markazi
7.	Nurobod	1969	1983	Nurobod	Tuman markazi
8.	Oqtosh		1967	Narpay	Tuman markazi т.й. сг-яси
9.	Payariq		1994	Payariq	Tuman markazi
10.	Urgut		1973	Urgut	Tuman markazi
11.	Chelak	1973	1981	Payariq	
12.	Payshanba	1984		Kattaqurg'on	Tuman markazi
13.	Kimyogar	1952		Samarqand sh.	
14.	Ziyovudin	1972		Paxtachi	Tuman markazi
15.	Loyish	1984		Oqdaryo	Tuman markazi
16.	Charxin	1978		Pasdarg'on	
17.	Ingichka	1944		Kattaqurg'on	Resurs shaxri
18.	Daxbed	1978		Oqdaryo	
19.	Kattaqurg'on suv ombori	1947		Kattaqurg'on	
20.	Metan	1986		Ishtixon	
21.	Mirbozor	1992		Narpay	
22.	Farhod	1981		Samarqand sh.	
23.	Xishrav	1952		Samarqand sh.	

Samarqand shahri - O'zbekistonning eng qadimiy va yirik shaharlaridan biri bo'lib, Samarqand viloyatining ma'muriy, ijtimoiy va iqtisodiy markazi hisoblanadi. Shaharning maydoni taxminan 120 km² bo'lib, qadimda Maroqand nomi bilan mashhur bo'lgan va miloddan avvalgi VIII asrda shahar sifatida shakllangan. Shu bois Samarqand tarixiy jihatdan ham, bugungi rivojlanish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda Samarqand shahri yirik aholi manzilgohi sifatida ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va xizmatlar markazi vazifasini bajaradi. Shaharda oliy ta'lim muassasalari, tibbiyot va ilmiy markazlar jamlangan bo'lib, bu uning ijtimoiy ahamiyatini yanada oshirmoqda. Aholining asosiy qismi xizmat ko'rsatish, savdo, ta'lim va turizm sohalarida band. Iqtisodiy jihatdan Samarqand sanoat, transport va turizmning muhim markazidir. Mashinasozlik, oziq-ovqat, to'qimachilik va qurilish materiallari ishlab chiqarish yetakchi o'rin tutadi. Temiryo'l, avtomobil yo'llari va xalqaro aeroport shaharni respublika va xalqaro miqyosdagi muhim transport-logistika tuguniga aylantirgan. So'ngi yillarda Samarqanda keng ko'lamli qurilish va islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi turar joy massivlari, zamonaviy yo'l va ko'priklar, ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda. Ayniqsa, **"Buyuk Ipak yo'li"** xalqaro turizm markazi, yangi mehmonxonalar, savdo va xizmat ko'rsatish majmualari shahar qiyofasini tubdan o'zgartirmoqda. Obodonlashtirish, transport tizimini yangilash, yashil hududlarni kengaytirish bo'yicha islohotlar aholining yashash sharoitini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Kattaqo'rg'on shahri - Samarqand viloyatining muhim shaharlaridan biri bo'lib, Zarafshon vodiysining g'arbiy qismida joylashgan. Shahar 1868-yilda shahar maqomini olgan va tarixan savdo, hunarmandchilik hamda ma'muriy markaz sifatida shakllangan. Hozirgi kunda Kattaqo'rg'on Samarqand viloyatiga bo'ysunuvchi shahar hisoblanadi. Shaharning ijtimoiy ahamiyati uning aholi yashashi, ta'lim, sog'liqni saqlash va xizmatlar markazi sifatidagi roli bilan belgilanadi. Kattaqo'rg'on nafaqat shahar aholisi, balki atrofdagi tumanlar uchun ham savdo va xizmat ko'rsatish markazi vazifasini bajaradi. Iqtisodiy jihatdan shahar oziq-ovqat va yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, savdo va

transport faoliyati bilan ajralib turadi. Qulay transport joylashuvi Samarqand, Navoiy va Buxoro yoʻnalishlari bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga imkon beradi. Soʻnggi yillarda shaharda yangi turar joylar, yoʻl va ijtimoiy infratuzilma obyektlari qurilishi, obodonlashtirish va xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Urgut shahri - Samarqand viloyatining muhim shaharlaridan biri boʻlib, viloyatning janubiy qismida, togʻli hududlar bilan chegaradosh joyda joylashgan. Shahar qadimiy tarixga ega boʻlib, tarixiy manbalarda Urgut XVIII–XIX asrlarda shahar maqomini olgan deb qayd etiladi. Hozirgi kunda Urgut Samarqand viloyatiga boʻysunuvchi shahar hisoblanadi. Shaharning maydoni taxminan 10–15 km² boʻlib, aholisi va xoʻjalik faoliyati zich joylashgan. Ijtimoiy jihatdan Urgut shahri oʻz aholisining taʼlim, sogʻliqni saqlash va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi markaz vazifasini bajaradi. Shaharda maktablar, kasb-hunar markazlari, tibbiyot muassasalari va madaniyat obyektlari mavjud boʻlib, shahar nafaqat oʻz aholisi, balki atrof tumanlar uchun xizmat koʻrsatadi. Iqtisodiy jihatdan Urgut shahri koʻproq yengil sanoat, toʻqimachilik, savdo va xizmatlar sohalari bilan ajralib turadi. Shahar togʻli hududdagi transport yoʻllari orqali Samarqand va boshqa viloyatlar bilan bogʻlanganligi sababli savdo va transport-logistika imkoniyatlariga ega. Qishloq xoʻjaligi, ayniqsa bogʻdorchilik va dehqonchilik shahar iqtisodiyotida muhim oʻrin tutadi. Soʻnggi yillarda Urgut shahrida ham yangi qurilish va islohotlar amalga oshirilmoqda: turar joy massivlari, yoʻl va ijtimoiy infratuzilma obyektlari barpo etilmoqda, obodonlashtirish ishlari, yashil hududlarni kengaytirish va xizmatlar sohasini rivojlantirish boʻyicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Samarqand viloyati shahar manzilgohlarining bugungi holatini oʻrgangan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Viloyat shaharlarida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar barqaror oʻsish bosqichiga kirgan. Urbanizatsiya kuchayib, shahar aholisi yil sayin ortmoqda. Madaniy meros va turizm sohasi shaharlarning rivojlanishida yetakchi omil boʻlib qolmoqda. Geografik joylashuv har bir shahar manzilgohining iqtisodiy ixtisoslashuvini belgilab bermoqda. Umuman,

Samarqand viloyati shaharlarining bugungi holati ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va geografik jihatdan barqaror va istiqbolli rivojlanayotganligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi. (2023). Samarqand viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Hududlar bo'yicha demografik ko'rsatkichlar: Samarqand viloyati statistik to'plami. Toshkent: O'zStat.
3. Samarqand viloyati hokimligi. (2023–2024). Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bo'yicha hisobotlar. Samarqand.
4. Rasulov Sh. (2021). Shaharlar geografiyasi va urbanizatsiya jarayonlari. Toshkent: Universitet nashriyoti.
5. Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi: Investitsiyalar bo'yicha rasmiy ma'lumotlar. <https://samstat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>
6. Asian Development Bank: Harnessing Uzbekistan's Potential of Urbanization — hududiy tahlil.
<https://www.adb.org/sites/default/files/institutional-document/735126/uzbekistan-national-urban-assessment.pdf>